| | Hudud | Bo‘lim | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmada solkashlik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan jarayonni izohlab bering. | Yosh mevalar haddan tashqari ko‘p bo‘lganida ularning ichidagi urug‘lar ko‘p bo‘ladi. Urug‘lar ko‘p bo‘lganida gibberelin moddasi miqdori ortib ketadi va bu kelasi yilgi gul kurtaklarni vegetativ kurtaklarga aylanib qolishiga sabab bo‘ladi |
| 2 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmada do‘l va quyoshga qarshi kurashning eng samarali usuli nima? | Quyosh va do‘lga qarshi himoya to‘rlarini o‘rnatish |
| 3 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmada terimga yaqin meva to‘kilishini kamaytirish usullarini sanab bering. | Geni jihatdan to‘kilishga moyil bo‘lmagan nav ekish, meva terimi vaqtini to‘g‘ri aniqlash (pishib ketgan istalgan nav to‘kiladi), Terimdan 2–3 hafta oldin maxsus gormonal preparatlar (masalan, NAA — naftilsirka kislotasi yoki Retain) purkaladi. Ular meva bandida ajralish qatlamining hosil bo‘lishini sekinlashtiradi. |
| 4 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | O‘zbekiston bo‘ylab olma yetishtirish uchun qulay bo‘lgan hududlarga misol keltiring. | Baxmal Zomin (tog‘li qismlari) Bulung‘ur (tog‘li qismlari) Urgut Sangardak (Sariosiyo va Uzun tumanlari) Shaxrisabz va Kitob Yangiqo‘rg‘on (tog‘li qismlari) Bo‘stonliq |
| 5 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Issiq hududlarda ham nisbatan yaxshi rang oladigan navlarni sanab bering. | Devil Gala, Rozi Glou, Modi, For Leydi |
| 6 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmaning Grenni Smit navi har yili meva bera oladi va solkashlikka deyarli chalinmaydi. Bunga sabab nima? | Ushbu nav ortiqcha mevalarini o‘zi to‘ka oladi, ya’ni o‘zini-o‘zi siyraklashtiradi. |
| 7 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmadagi eng asosiy zararkunandalar qaysilar? | Olma qurti -Olma kulgich qo‘ng‘izi -Kaliforniya qalqondori -Qon biti -O‘rgimchak kana -Yashil shira |
| 8 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmada kaltsiy yetishmovchiligi qanday namoyon bo'ladi? | Terimdan keyingi saqlash jatayonida mevalarda chuqurchalar paydo bo'ladi |
| 9 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmaning eng xavfli kasalliklariga misollar keltiring | Olma qo'tiri, bakterial kuyish |
| 10 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olma qurtini nazorat qilishda feromon tuzoqning vazifasi qanday? | Feromon tuzoq kapalaklarning uchish va juftlashish vaqtini aniqlash va ishlovlarni reja qilish uchun o'rnatiladi |
| 11 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Kaltsiy yetishmovchiligi qaysi olma navlarida ko'p kuzatiladi? | Grenni Smit, Golden va qizil olma navlarida |
| 12 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olma yetishtirish uchun qanday tuproqlarni tanlagan ma'qul? | og'ir loyli yoki gilli tuproqlar |
| 13 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmada pakana va yarim pakana payvandtaglarning eng asosiy vazifasi nima? | Daraxt o'sishini sekinlatish va tezroq mevaga kiritish |
| 14 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmada 1 gektar maydonga eng kamida necha foiz changlatuvchi nav ekilishi tavsiya qilinadi? | Eng kamida 5%, ma'qbuli 10% |
| 15 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmada changlatuvchi nav sifatida qaysi erkak olma (ranetki) navlaridan ko'p foydalaniladi? | Red Senteniel, Golden Jem, Everest |
| 16 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Devil Gala navi odatda mavsumning qaysi qismida teriladi? | iyul oxiri-avgust boshida |
| 17 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Golden Reinders navining boshqa Golden klonlaridan ustunligini izohlab bering | Usti to'rlanmaydi, band tomonidan to'rlanishi sezilarli darajada emas |
| 18 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Zamonaviy nok payvandtaglariga misollar keltiring | BA29, OHF, Fox11 |
| 19 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Nok yetishtishtirishdagi ikkita eng katta muammo qaysilar | Bakterial kuyish kasalligi, nok shirinchasi |
| 20 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Bakterial kuyish kasalligiga chidamli nok navini bilasizmi? | Harrow Sweet |
| 21 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Issiqda bargi kuyib ketadigan va shu sababli tavsiya qilinmaydigan nok navi qaysi? | Konferensiya |
| 22 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | O'zbekistonda eng birinchi teriladigan ertaki nok navi nomini bilasizmi? | Iyun Go'zali |
| 23 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Terimdan oldin nok mevasining qattiqligi qaysi uskunada o'lchanadi? | Penetrometr |
| 24 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Nokda BA29 payvandtagining eng asosiy kamchiligi nimada? | Ishqorli tuproqlarda temirni o'zlashtira olmaydi natijada daraxt barglari sarg'ayib ketadi |
| 25 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Nokda changlatuvchi sifatida qo'llaniladigan eng ommabop nok navi qaysi? | Williams navi |
| 26 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Zamonaviy gilos payvandtaglariga misollar keltiring | VSL2, CAB6P, Maxma 14 |
| 27 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Gilos mevalari qo'shaloq bo'lishining eng asosiy sababi nimada? | Terimdan keyingi issiq haroratlar kelasi yilgi gul kurtaklarga salbiy ta'sir o'tkazadi |
| 28 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Terimdan oldin kuzatiladigan iliq yomg'irlarning gilos mevalariga qanday salbiy ta'siri mavjud | Gilos mevalari yorilib ketadi yoki yumshab qoladi, eksportbopligini yo'qotadi |
| 29 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Gilos mevasiga zarar keltiradigan eng asosiy zararkunanda nomi nima? | Gilos pashshasi |
| 30 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Yo'l-yo'l mevaxo'r gilos bog'larida qanday muammoga sabab bo'lishi mumkin? | Yosh novdalar uchki qismini zararlaydi va natijada daraxt o'sishi buzilib ketadi |
| 31 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Gilos bog'larining qurib ketishiga sabab bo'ladigan bakteria nomini bilasizmi? | Pseudomonas syringae |
| 32 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Gilos bog'larida keng tarqalgan shakl berish usullarini bilasizmi? | Kim Grin Butasi usuli, Ispan Butasi, Vazasimon usul |
| 33 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Ertaki gilos navlarini ekish tavsiya qilinadigan hudularga misol keltiring | Farg'ona Vodiysi, Surxondaryo viloyati |
| 34 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Ertaki gilos navlariga misollar keltiring | Royal Tioga, Nimba, Sweet Ariana, Jaynt Red |
| 35 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | O'rtaki gilos navlariga misollar keltiring | Samba, Lapins, SPC342 |
| 36 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Kechki gilos navlariga misollar keltiring | Skeena, Sweetheart, Staccato |
| 37 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Gilosda gullash davrida asosan qaysi kasallikka qarshi kurashiladi? | Monilioz (gul chirishi) |
| 38 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | O'zini changlatadigan gilos navlariga misol keltiring? | Royal Tioga, Sweet Ariana, Lapins, Skeena, Staccato |
| 39 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Kechki tog'li hududlarga qaysi gilos navlarini ekish maqsadga muvofiq bo'ladi | SPC342, Samba, Lapins, Skeena, Sweetheart, Staccato |
| 40 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Issiqxonada yetishitirish uchun bzida mavjud eng yaxshi gilos navlariga misol keltiring | Royal Tioga, Sweet Ariana |
| 41 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Quritishga mo'ljallangan mahalliy o'rik navlarining katta kamchiligi sifatida nimani ko'rsatish mumkin? | O'zini changlatmasligi va shu sababli hosildorligining past bo'lishi |
| 42 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Ochiq ildizli sifatli ko'chat tanasi qalinligi va balandligiga qanday talablar qo'yiladi? | Ochiq ildizli sifatli ko'chat tanasi diametri 0.8-1.2 sm (payvand nuqtasidan 10 sm yuqoridan o'lchanganida), balandligi eng 1.5-1.8 metr bo'lishi ma'qul ko'riladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 43 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Mevali daraxtlarga shakl berishdan asosiy maqsad nima? | Bog'da kesish, ortiqcha mevalarni kamaytirish va terimni oson, sifatli va arzon bo'lishini ta'minlash. Mevalarga bir xilda quyosh nurini yetib kelishiga va kelajakdagi ishlovlarni samaraliroq bo'lishiga erishish. |
| 44 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Mevali bog'larni intensivlashtirishdan asosiy maqsad nima? | Zamonaviy payvandtaglardan foydalangan holda 1 gektar maydonga ko'proq ko'chat ekiladi. Shu orqali bog'ning dastlabki yillarida ko'proq yorug'lik tutiladi. Kichik maydondan erta, sifatli va ko'p hosil olinadi. |
| 45 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Gilosda Voloviye Serdtse navi nega tavsiya qilinmaydi? | Bu nav o'zini changlatmaydi. Changlatuvchi nav ekilgan taqdirda ham, gullash davrida ob-havo noqulay kelsa changlanish yuz bermaydi. Hosildorlik nihoyatda past bo'ladi. |
| 46 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Olmada Rosy Glow hamda Devil Gala navlarining qanday alohida xususiyati mavjud? | Ushbu navlar issiq hududlarda ham qizil rang oladi va mevalari yaxshi narxlarda sotiladi |
| 47 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Black Splendor hamda Stanley olxo'ri navlarini o'zaro taqqoslang. | Black Splendor navi erta gullaydi, qishki va bahorgi sovuqlarga chidamsiz. O'zini changlatmaydi. Stanley navi quritishga mo'ljallangan. Kech gullaydi, o'zini changlatadi. Qishki sovuqlarga chidamli. |
| 48 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Zamonaviy uzum navlariga misollar keltiring. | Moondrop (Avatar), Red Globe, Summer Royal, Autumn Royal, Crimson Seedless, Scarlet |
| 49 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Nega issiqxonada yetishtirish uchun aynan Royal Tioga va Sweet Ariana navlari tanlanadi? | Ushbu navlar o'zini changlatadi, mevasi qattiq, erta pishadi - bu esa issiqxonada muhimdir. |
| 50 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Sanoatlashgan yangi intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlar deganda nimani tushunasiz? | Sanoatlashgan yangi intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlar — bu 10 gektar yoki undan ortiq yer uchastkasida, pakana va yarimpakana payvandtaglar asosida yetishtirilgan sermahsul ko‘chatlar zich ekish sxemasi bo‘yicha joylashtirilgan, resurs tejovchi agrotexnologik tadbirlar hamda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari asosida barpo etilgan mevali bog‘ va tokzorlardir |
| 51 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Iqtisodiy jihatdan samarasiz bog‘ va tokzor deganda nimani tushunasiz? | Iqtisodiy jihatdan samarasiz bog‘ va tokzor — bu so‘nggi uch yil mobaynida har yili olingan daromadi uni parvarishlashga sarflangan xarajatlarni qoplamaydigan, shuningdek, undagi ko‘chatlar soni umumiy bog‘ (yoki tokzor) maydoniga nisbatan 70 foizdan kam bo‘lgan holatdagi bog‘ va tokzorlardir. |
| 52 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlar deganda nimani tushunasiz? | Kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlar — bu ekilgan navlarning amaliy hosildorligi ularning ilmiy asoslangan me’yoriy (normativ) hosildorlik ko‘rsatkichlaridan past bo‘lgan bog‘ yoki tokzorlar maydonidir. |
| 53 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Yaroqsiz bog‘ va tokzorlar deganda nimani tushunasiz? | Yaroqsiz bog‘ va tokzorlar — bu muayyan maydonda joylashgan, iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosil beradigan, ko‘chatlar soni kamaygan, kuchli shikastlangan, standart talablarga javob bermaydigan, shuningdek, kasallik va zararkunandalar bilan qattiq zararlangan, tuproq-iqlim sharoiti hamda ekish sxemasiga mos kelmaydigan bog‘ va tokzorlardir. |
| 54 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Payvantak nima? | Ko'chatni pastki qism, ya’ni ildiz tizimini. |
| 55 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Payvanddust nima? | Ko'chatn yuqori qism, ya’ni poya, barg, meva beradigan qism. |
| 56 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Payvandlash nima? | Payvandlash — bir o‘simlikka ikkinchi o‘simlikning qalamchasi yoki kurtagini ulash. Payvand qilinadigan o‘simlik payvandtag, ulanadigan payvandust deyiladi |
| 57 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Bog‘dorchilik va uzumchilik loyihalarida TIA nima? | TIA — Sanoatlashgan yangi intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlarni barpo etish maqsadida ishlab chiqilgan yer tuzish loyihasi, ko‘chatlarni ekish sxemasi va navi, sug‘orish texnologiyasi, shuningdek, loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag‘lar va ularni o‘zlashtirish muddatlari hamda texnik shartlarni asoslab beruvchi loyihaoldi hujjati; |
| 58 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Bog‘dorchilik va uzumchilikda texnik shart (TSh) nima? | TSh — sanoatlashgan intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlar barpo etishda ko‘chat ekish sxemasi, ko‘chatni kafolatlangan navi, sug‘orish tizimi va boshqa shartlarni belgilab beruvchi texnik talablar. |
| 59 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | TShni ishlab chiqishdan asosiy maqsad nima? | Loyihani texnik jihatdan to‘g‘ri, xavfsiz va samarali amalga oshirishni ta’minlashdir. |
| 60 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | "Daladan dasturxongacha" tamoyili nimani anglatadi? | Bu tamoyil mahsulot yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash, saqlash, transport qilish va iste’molchiga yetkazishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. |
| 61 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Agroklaster deganda nimani tushunasiz? | Bu bir yoki bir nechta yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan zamonaviy texnologiyalar asosida mahsulot yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilishni o‘z ichiga olgan tizimdir. |
| 62 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Tomchilab sug‘orishning afzalliklari haqida aytib bering? Tomchilatib sug‘orishda an’anaviy usulga nisbatan necha foiz suv tejaladi? | Suvni 30-40% gacha tejaydi; O‘simlik ildiz qismiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri suv yetkazib beradi; Har bir daraxtga mo‘ljallangan o‘lchovda suv berish Mineral va organik o‘g‘itlarni ko‘chatning ildiz tizimiga yetkazib berishi. |
| 63 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Intensiv bog‘lar an’anaviy bog‘lardan qanday farq qiladi? | Intensiv bog‘larda daraxtlar orasidagi masofa kichik Hosildorlik 3–4 barobar yuqori. Erta meva beradi (2–3 yilda). Pakana va yarim payvandtaglarda ekiladi. Agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish qulay. Daraxtlar tabbiy holda oladigan elemintlarni o‘ziga yaxshi qabaul qiladi (quyosh nuri) kerakli. |
| 64 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Intensiv pakana daraxtlar ekilgan bog‘larda nima uchun simbag‘az o‘rnatiladi? | Shakl berish va o‘sishni to‘g‘ri amalga oshirish hamda tabbiy ofatlardan saqlanish (Chunki simbag‘oz asosan paka mevali daraxtlarga o‘rnatiladi. Sababi, ularning ildiz qismi — payvandtag qismi popuk ildizli.) uchun simbag‘az o‘rnatiladi |
| 65 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 yildagi PF-151- sonli Farmonida haqida ma’lumot bering? | Mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlash, intensiv usulda bog‘ va tokzorlar barpo qilish, issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish, qayta ishlash, eksport salohiyatini oshirish hamda yuqori daromadli ish o‘rinlarini tashkil etish.<br>Shuningdek, intensiv mevachilik, uzumchilik, vinochilik va issiqxona xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirishni ta’minlashga hamda eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashishga qaratilgan maqsadli kompleks dasturlarni amalga oshirish,<br>tog‘ oldi va qir-adirlik, iqtisodiy samarasiz hamda eskirgan bog‘ va tokzorlar o‘rnida yangidan sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzorlar barpo etishga ko'maklashish |
| 66 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Eskirgan, yaroqsiz bog‘ va tokzorlarni yangilab borishda Agentlik vakolatlari haqida aytib bering? | Eskirgan bog‘larni yaroqsiz deb topish, ular o‘rnida sanoatlashgan bog‘lar barpo etish yoki haydaladigan yerlar turiga o‘tkazish to‘g‘risida **xulosani qabul qilish vakolati Agentlikka ham berildi.** |
| 67 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Fermer xo‘jaliklari eskirgan bog‘larni yangilash choralarini ko‘rmaganlik oqibatlari haqida aytib bering? | Agentlik tomonidan xulosa berilgan sanadan boshlab:<br>-12 oy davomida yangi bog‘ va tokzorlar barpo etilmagan taqdirda, ushbu bog‘lar joylashgan maydonlar uchun er solig‘i va suvdan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 3 baravarga oshiriladi;<br>-24 oy davomida yangi bog‘ va tokzorlar barpo etilmagan taqdirda, ushbu bog‘lar joylashgan maydonlarda suv olish taqiqlanadi. |
| 68 | **Viloyat va tuman uchun** | **Viloyat va tuman loyiha ofislari uchun** | Bog'dorchilik soxasida soliqdan qanday imtiyozlar mavjud? | 2026 yil 1 avgustdan boshlab zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan sanoatlashgan bog‘larda burg‘ilangan quduqlardan olingan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi besh yil muddatga 1 so‘m miqdorida belgilandi. |
| 69 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Manfaatlar to‘qnashuvi nima? | shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat |
| 70 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Shaxsiy manfaatdorlik nima? | shaxsiy manfaatdorlik — davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik; |
| 71 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Deklaratsiya qanday maqsadda topshiriladi? | Mansabdor shaxslar shaxsiy va mansab vazifalari bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va nazorat qilish, korrupsiya xavfini kamaytirish uchun |
| 72 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Davlat xizmatchilarining ochiqlik prinsipi nimani anglatadi? | Barcha qarorlar, harakatlar va faoliyat ochiq bo‘lishi, ularni jamoatchilik va tegishli organlar nazorat qilishi mumkinligini anglatadi |
| 73 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Davlat fuqarolik xizmatchisi o‘z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida sovg‘a olishi mumkinmi? | Davlat fuqarolik xizmatchisi o‘z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida faqat muayyan shartlar asosida va cheklangan holatlarda sovg‘a olishi mumkin. Oddiy ish kunlarida yoki O‘zbekiston hududidagi oddiy xizmat safarlari davomida sovg‘a olish qat'iyan taqiqlanadi. |
| 74 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Korrupsiyaga oid xabar berishda shaxs qanday himoya qilinadi? | Korrupsiya haqida xabar bergan shaxslar davlatning himoyasi ostida bo‘ladi va maxfiylikka amal qilinadi |
| 75 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Davlat xizmatchisi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkinmi? | Yo‘q, davlat fuqarolik xizmatchisi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas.O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga muvofiq, davlat xizmatchilariga tadbirkorlik bilan shug‘ullanish qat'iyan man etilgan. |
| 76 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Korrupsiya tushunchasiga ta’rif bering? | Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishidir. |
| 77 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Davlat xizmatchisi deklaratsiya topshirmasa qanday choralar qo‘llaniladi? | Ma‘muriy jazo chorasi qo‘llash, lavozimidan chetlashtirish va tegishli organlarga xabar berishga sabab bo‘ladi |
| 78 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik ishtirokining ahamiyati nima? | Jamoatchilik nazorati korrupsiya holatlarini erta aniqlash va oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi |
| 79 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Korrupsiya haqida xabar berganlik uchun qanday rag‘batlantirish belgilangan? | Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida belgilanadi |
| 80 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Davlat fuqarolik xizmatchilari biror manfaatni ko‘zlab sovg‘a olishi mumkinmi? | Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan o‘zlarining xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini ko‘zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan har qanday sovg‘alar olish taqiqlanadi |
| 81 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Korrupsiya haqida xabar beruvchilarga qanday kafolatlar beriladi? | Xabar beruvchilarning shaxsiy ma‘lumotlari sir saqlanadi va e‘lon qilinmaydi |
| 82 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Korrupsiya haqida xabar berish qanday shaklda amalga oshirilishi mumkin? | Korrupsiya haqida xabar berish og‘zaki, yozma va elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin |
| 83 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Shaxsiy manfaatdorlik tushunchasi nima? | davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik |
| 84 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunga asosan yaqin qarindoshlar kimlar? | ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari |
| 85 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan taqdim etiladigan sovg‘ani tasarruf qilish tartibi? | Sovg‘aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravariga teng yoki undan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ekanligi aniqlangan taqdirda, sovg‘a davlat fuqarolik xizmatchisida qoldiriladi va u tomonidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra tasarruf etiladi. Sovg‘aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravaridan ortiqligi aniqlangan taqdirda, sovg‘a moliya-iqtisod bo‘linmasi tomonidan davlat organining balansiga kirim qilinadi. |
| 86 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Korrupsiyaning salbiy ijtimoiy oqibatlari nimalar | Inson huquq va erkinlari kafolatlariniizdan chiqaradi, Jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi, Aholining, xalqning olib borilaėtgan islohotlarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi, Ijtimoiy munosabatlarda adolatsizlikni vujudga keltiradi, Aholi o‘rtasida turlixil noroziliklarni keltirib chiqaradi, Davlat organlarining barqarorliginiizdan chiqaradi va boshqalar |
| 87 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun qanaqa huquqiy javobgarlik turlari mavjud. | Intizomiy huquqiy, Ma’muriy-huquqiy, Jinoiy-huquqiy |
| 88 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Ochiqlik va shaffoflik deganda nimani tushunasiz. | ma’muriy-boshqaruv jarayonining borishi, keng jamoatchilikni tashkilotda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida fuqarolar va jamiyatning boshqa sub’ektlarini xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda) |
| 89 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Davlat fuqarolik xizmatchisining korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabati ayting | Davlat fuqarolik xizmatchisi korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi va korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarning (harakatsizlikning) oldini olishi shart. Agar davlat fuqarolik xizmatchisi korrupsiya faktlari to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lsa, u korrupsiyaning oldini olish uchun zarur choralar ko‘rishi, shu jumladan yuqori turuvchi davlat organini (mansabdor shaxsini) yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organini darhol xabar qilishi yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat etishi kerak. |
| 90 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan qanday intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi: | hayfsan; o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima; malaka darajasini pasaytirish; davlat fuqarolik xizmati lavozimini pasaytirish; egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish. |
| 91 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Davlat fuqarolik xizmatchisi kim? | bu qonunchilikka asosan davlat organlarida doimiy, professional asosda ishlovchi, davlat vazifalarini amalga oshiruvchi shaxsdir. Ular davlat tomonidan belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi va faoliyati uchun belgilangan talablarga rioya etishi shart. Davlat fuqarolik xizmati lavozimida o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmatchisidir |
| 92 | **Viloyat va tuman uchun** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish** | Moddiy manfaatdorlik nima? | Pul mablag‘lari, mulk, qimmatli qog‘ozlar, xizmatlar yoki har qanday moddiy boyliklarni qo‘lga kiritish. |
| 93 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi nechta bo‘lim, bob va moddadan iborat va boshqaruvning shakli haqida aytib bering? | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 6 bo‘lim,<br>27 bob va 155 moddadan iborat.<br>O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. |
| 94 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga ko‘ra davlat hokimiyatining tizimi haqida aytib bering? | O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi. |
| 95 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasida Konstitusiya va qonunning ustunligi haqida aytib bering? | 15-modda. O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.<br>O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Alohida hududlarda O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy Qonuni bilan yagona huquqiy makon doirasida maxsus huquqiy rejim o‘rnatilishi mumkin.<br>O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir.<br>Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi.<br>Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.<br>16-modda. Ushbu Konstitusiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitusiyaning birinchi bo‘limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.<br>O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitusiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **96** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida fuqarolarning qanday siyosiy huquqlari belgilangan? | VIII bob. Siyosiy huquqlar<br>36-modda.<br>O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega.<br>37-modda.<br>O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar.<br>38-modda.<br>Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.<br>39-modda.<br>O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.<br>40-modda.<br>Har kim bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.<br>Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart. |
| **97** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati qanday qoida va normalarga asoslangan? | IV bob. Tashqi siyosat<br>17-modda.<br>O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir.<br>O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.<br>18-modda.<br>O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.<br>O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin. |
| **98** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida fuqarolarning qanday shaxsiy huquq va erkinliklari belgilangan? | VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar<br>25-modda.<br>Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.<br>O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi.<br>26-modda.<br>Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.<br>27-modda.<br>Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.<br>28-modda.<br>Aybsizlik prezumpsiyasi<br>29-modda.<br>Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi.<br>30-modda.<br>Hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.<br>31-modda.<br>Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.<br>Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.<br>Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.<br>32-modda.<br>Qonuniy asoslarda O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno.<br>Har kim O‘zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistonga to‘sqinliksiz qaytish huquqiga ega.<br>33-modda.<br>Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. |
| **99** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida fuqarolarning qanday iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari belgilangan? | Javob: IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar<br>41-modda.<br>Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli.<br>Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.<br>42-modda.<br>Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.<br>43-modda.<br>Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi.<br>44-modda.<br>Majburiy mehnat taqiqlanadi.<br>45-modda.<br>Har kim dam olish huquqiga ega.<br>46-modda.<br>Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega.<br>47-modda.<br>Har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga ega.<br>48-modda.<br>Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.<br>49-modda.<br>Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.<br>50-modda.<br>Har kim ta’lim olish huquqiga ega.<br>51-modda.<br>Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli. |
| **100** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilangan inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklarining kafolatlari qanday? | X bob. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari<br>54-modda.<br>Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir.<br>55-modda.<br>Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.<br>56-modda.<br>Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi.<br>57-modda.<br>Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.<br>58-modda.<br>Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. |
| **101** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq fuqarolarning burchlari nimalardan iborat? | XI bob. Fuqarolarning burchlari<br>59-modda.<br>Barcha fuqarolar Konstitusiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajaradilar.<br>60-modda.<br>Fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.<br>61-modda.<br>Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart.<br>Tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.<br>62-modda.<br>Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar.<br>63-modda.<br>Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart.<br>Soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi hamda fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak.<br>64-modda.<br>O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar. |
| **102** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Normativ-huquqiy hujjat tushunchasiga ta’rif bering? | Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir. |
| **103** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Normativ-huquqiy hujjatlarning turlarini sanab bering? | Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardan iborat:<br>O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi;<br>O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;<br>O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Rahbarining farmoyishlari;<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;<br>vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;<br>mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari. |
| **104** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Normativ-huquqiy hujjatlarning o‘zaro nisbati haqida aytib bering? | Turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo‘yicha o‘zaro nisbati O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatlariga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi.<br>Normativ-huquqiy hujjat o‘ziga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lishi kerak.<br>Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovutlar bo‘lgan taqdirda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat qo‘llaniladi.<br>Teng yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovutlar bo‘lgan taqdirda, keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qoidalari amal qiladi, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno.<br>Agar normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo‘lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil maqomdagi boshqa vazirlik yoki idora tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘ladi.<br>Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. |
| **105** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar haqida aytib bering? | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 yildagi PF-151-son Farmoni va PQ-344-son qarori, 09.06.2026 yildagi PF-108-son Farmoni, 23.04.2025 yildagi VMQ 255-son qarori. |
| **106** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 yildagi PF-151-son Farmoniga asosan respublikada sanoatlashgan yangi intensiv bog‘ va tokzorlarni barpo etish tartibi haqida aytib bering? | Farmonga ko‘ra, zaxiradagi yer uchastkalarida yangi bog‘larni barpo etish Agentlik tomonidan ishlab chiqiladigan loyihaning texnik-iqtisodiy asoslariga muvofiq Agentlik yoki u tomonidan tanlangan tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi;<br>zaxiradagi yer uchastkalari yangi bog‘larni barpo etish uchun Agentlikka yoki u tomonidan tanlangan tadbirkorlik subyektiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijara huquqi bilan ajratiladi, bunda, istisno tariqasida, investitsiya loyihasining qiymati 10 million AQSH dollaridan kam bo‘lishiga, eng yaxshi taklifni tanlash bo‘yicha tanlov o‘tkazilmasligiga, oldindan maxsus hisobvaraqqa pul joylashtirmasdan hamda yer uchastkalarining aniq ro‘yxatini yer ijarasi shartnomalarida belgilash sharti bilan yer uchastkalarini realizatsiya qilishga ruxsat beriladi;<br>Agentlikka o‘ziga ijara huquqi bilan ajratilgan yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida tadbirkorlik subyektlariga qayta ijaraga berish huquqi beriladi. |
| **107** | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Agentlikning ustuvor yo‘nalishlari haqida aytib bering? | 1. Intensiv mevachilik, uzumchilik, vinochilik va issiqxona xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirishni ta’minlashga hamda eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashishga qaratilgan maqsadli kompleks dasturlarni amalga oshirish.<br>2. Zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni, shu jumladan tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini qo‘llagan holda intensiv bog‘ plantatsiyalari, issiqxona xo‘jaliklari maydonlarini kengaytirish choralarini ko‘rish.<br>3. Hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, bog‘dorchilik, uzumchilik va issiqxona xo‘jaligida ilmiy yutuqlar, ilg‘or ilmiy ishlanmalar va innovatsion agrotexnologiyalardan keng foydalanishni tashkil etish.<br>4. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni sanoatlashtirish, shuningdek, mevali bog‘ va uzumzorlarni tayyor holda barpo etish hamda ularni tashabbuskorlarga sotish choralarini ko‘rish, shuningdek, yangi bog‘ va tokzorlar oralariga qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekilishini va ulardan samarali foydalanilishini tashkil etish.<br>5. Sohada «daladan dasturxongacha» tamoyili asosida qo‘shilgan qiymat zanjirini joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportiga ko‘maklashish, shuningdek, meva va uzum mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlarni rivojlantirish hamda xalqaro standart talablarini joriy etishga ko‘maklashish.<br>6. «In-vitro» laboratoriyalarda kafolatlangan, virusdan holi bo‘lgan ko‘chatlar yetishtirishni rag‘batlantirish mexanizmini hamda ko‘chatlarni sertifikatlashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish.<br>7. Meva va uzum navlarining milliy brendlarini yaratish choralarini ko‘rish hamda meva va uzum mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash, milliy brendlarni targ‘ib qilish, xorijiy mutaxassislarni jalb etish, tashqi bozorlarga chiqish, eksport geografiyasi va mahsulot turlarini kengaytirish bo‘yicha marketing tadqiqotlarini o‘tkazish.<br>8. Intensiv bog‘dorchilik, uzumchilik va himoyalangan joylarda sabzavotchilik bo‘yicha zamonaviy bilim va tajribalarni tatbiq qilish ishlarini tashkil etish.<br>9. Fermer va dehqon xo‘jaliklariga hamda tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashish maqsadida Agentlik rasmiy veb saytida yangi bog‘larni barpo etish maqsadidagi ochiq elektron tanlovlarni, ko‘chatchilikka ixtisoslashgan xo‘jalik yoki «In-vitro» laboratoriyalar hamda yangi tashkil etilgan bog‘ va tokzorlarning reyestrini, malakali agronomlar va import qilishda bojxona bojlaridan ozod etiladigan mevali ko‘chatlar va payvandtaglar, payvandustlari, onalik materiallari ro‘yxatini, balli baholash tizimi bo‘yicha mevachilik va uzumchilik mahsulotlari yetishtiruvchilar reytingini e’lon qilib borish. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 108 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Agentlikning asosiy vazifalari haqida aytib bering? | intensiv (sermahsul) mevachilik, uzumchilik, issiqxona xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirishni ta’minlashga hamda eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashishga qaratilgan maqsadli kompleks dasturlarni amalga oshirish;<br>zamonaviy resurs-tejamkor texnologiyalarni, shu jumladan, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini qo‘llagan holda intensiv (sermahsul) bog‘ hamda issiqxona xo‘jaliklari maydonlarini kengaytirish choralarini ko‘rish;<br>hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, bog‘dorchilik, uzumchilik va issiqxona xo‘jaligida ilmiy yutuqlar, ilg‘or ilmiy ishlanmalar va innovatsion agrotexnologiyalardan keng foydalanishni tashkil etish;<br>qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni sanoatlashtirish, shuningdek, mevali bog‘ va uzumzorlarni tayyor holda barpo etish hamda ularni tashabbuskorlarga sotish choralarini ko‘rish, shuningdek, yangi bog‘lar oralariga qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekilishi va ulardan samarali foydalanilishini tashkil etish;<br>sohada «daladan dasturxongacha» tamoyili asosida qo‘shilgan qiymat zanjirini joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportiga ko‘maklashish, shuningdek, meva va uzum mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlarni rivojlantirish hamda xalqaro standart talablarini joriy etishga ko‘maklashish;<br>«In-vitro» laboratoriyalarida kafolatlangan, virusdan xoli bo‘lgan ko‘chatlar yetishtirishni rag‘batlantirish mexanizmini hamda ko‘chatlarni sertifikatlashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish;<br>meva va uzum navlarining milliy brendlarini yaratish choralarini ko‘rish hamda meva va uzum mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash, milliy brendlarni targ‘ib qilish, xorijiy mutaxassislarni jalb etish, tashqi bozorlarga chiqish, eksport geografiyasi va mahsulot turlarini kengaytirish bo‘yicha marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;<br>intensiv (serhosil) bog‘dorchilik, uzumchilik va himoyalangan joylarda sabzavotchilik bo‘yicha zamonaviy bilim va tajribalarni tatbiq qilish ishlarini tashkil etish;<br>fermer va dehqon xo‘jaliklariga hamda tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashish maqsadida Agentlik rasmiy veb-saytida yangi bog‘larni barpo etish maqsadidagi ochiq elektron tanlovlarni, ko‘chatchilikka ixtisoslashgan xo‘jalik yoki «In-vitro» laboratoriyalari hamda tashkil etilgan yangi bog‘larning reyestrini, malakali agronomlar va import qilishda bojxona bojlaridan ozod etiladigan mevali ko‘chatlar va payvantaglar, payvandustlari, onalik materiallari ro‘yxatini, balli baholash tizimi bo‘yicha meva va uzum mahsulotlari yetishtiruvchilar reytingini e’lon qilib borish. |
| 109 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Anonim murojaat haqida aytib bering? | anonim murojaat — jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan yoxud ular haqida yolg‘on ma’lumotlar ko‘rsatilgan murojaat, shuningdek uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojaat yoxud imzo bilan tasdiqlanmagan yozma murojaat. |
| 110 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Murojaatlarning shakllari va turlari haqida aytib bering? | Murojaatlar og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo‘lishi mumkin.<br>Arizalar, takliflar va shikoyatlar murojaatlarning turlari hisoblanadi.<br>Murojaatlar, ularning shakli va turidan qat’i nazar, bir xil ahamiyatga ega bo‘ladi. |
| 111 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Murojaatlarga qo‘yiladigan talablar haqida aytib bering? | Jismoniy shaxsning murojaatida jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.<br>Yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.<br>Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida davlat organining, tashkilotning aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va (yoki) familiyasi (ismi, otasining ismi) ko‘rsatilgan, shuningdek murojaatning mohiyati bayon etilgan bo‘lishi kerak.<br>Murojaatlarda murojaat etuvchilarning elektron pochta manzili, aloqa telefonlari va fakslari raqamlari ko‘rsatilishi mumkin.<br>Murojaatlar davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.<br>Yozma murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo‘lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo‘shimcha ravishda yozib qo‘yilishi kerak.<br>Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. |
| 112 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi haqida aytib bering? | Davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxslariga kelib tushgan murojaatlar shu organ, tashkilot tomonidan yoki murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha zimmasiga majburiyatlar yuklatilgan mansabdor shaxslar tomonidan ko‘rib chiqiladi.<br>Davlat organiga, tashkilotga kelib tushgan murojaatlar bo‘ysunuv tartibida quyi turuvchi bo‘linmalarga ham yuborilishi mumkin.<br>Agar murojaatda davlat organlari, tashkilotlarning bir nechta tarkibiy bo‘linmalariga taalluqli masalalar mavjud bo‘lsa, ularning barchasi murojaatni ko‘rib chiqish bo‘yicha ijrochilar etib belgilanadi. Ijrochilar o‘rtasida birinchi ko‘rsatilgan tarkibiy bo‘linma murojaatning ko‘rib chiqilishini boshqa tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda ta’minlaydi.<br>Murojaatni to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun qo‘shimcha ma’lumotlar, ma’lumotnomalar va materiallarga zarurat paydo bo‘lgan taqdirda, mazkur murojaatni ko‘rib chiqayotgan davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari murojaat etuvchidan, shuningdek o‘z vakolatlari doirasida boshqa davlat organlaridan, boshqa tashkilotlardan va mansabdor shaxslardan qo‘shimcha axborotni so‘rab olishi mumkin. Agar axborot davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar o‘zlaridan so‘ralayotgan axborotni o‘n kun ichida taqdim etishi shart.<br>Murojaatlarni ko‘rib chiqayotgan davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxslari zarur hollarda, murojaatning joyning o‘ziga borib ko‘rib chiqilishini ta’minlashi mumkin.<br>Agar murojaatda qo‘yilgan masalalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga daxldor bo‘lsa, ularning vakillari murojaatlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish uchun davlat organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida jalb etiladi.<br>Agar murojaatni ko‘rib chiqishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tekshirish, shu jumladan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) zarurati yuzaga kelsa, tekshirish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. |
| 113 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlari haqida aytib bering? | Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo‘lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.<br>Ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari tegishli davlat organining, tashkilotning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.<br>Taklif davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘shimcha o‘rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno bo‘lib, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o‘n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi. |
| 114 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Qanday murojaatlar ko‘rmay qoldiriladi? | anonim murojaatlar;<br>jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda;<br>mazkur Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo‘lmagan murojaatlar.<br>Murojaatlar ko‘rmay qoldirilganda tegishli xulosa tuziladi, u davlat organining, tashkilotning rahbari yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadi.<br>Jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emasligi sababli murojaatlar ko‘rmay qoldirilganligi to‘g‘risida murojaat qiluvchi tegishli tartibda xabardor qilinadi. |
| 115 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Murojaatlarni ko‘rib chiqishni tugatish tartibi haqida aytib bering? | Murojaatlarni ko‘rib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:<br>agar takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan bo‘lsa, ilgarigi murojaat materiallarida esa tekshiruvlarning to‘la-to‘kis materiallari mavjud bo‘lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo‘lsa;<br>agar murojaat qiluvchi o‘z murojaatini belgilangan tartibda chaqirib olgan bo‘lsa yoki uni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risida iltimos qilgan bo‘lsa;<br>yashash joyi, turgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki boshqa rekvizitlari o‘zgarganligi to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilmaganligi tufayli chaqirishning imkoni yo‘qligi sababli murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko‘rib chiqish imkoniyati bo‘lmaganda;<br>murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko‘rib chiqish imkoniyati mavjud emasligi sababli, davlat organi, tashkilot yoki ularning mansabdor shaxsi tomonidan chaqirilgan murojaat qiluvchi kelmay qolgan taqdirda;<br>agar murojaat qiluvchi jismoniy shaxs vafot etganidan so‘ng murojaatni ko‘rib chiqish huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ymasa.<br>Murojaatni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risidagi qarorni davlat organining, tashkilotning rahbari yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi qabul qiladi. |
| 116 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonuniga asosan Davlat fuqarolik xizmatchisining majburiyatlari haqida aytib bering? | Davlat fuqarolik xizmatchisi:<br>O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi;<br>o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, davlat organi tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga, xizmatga oid axborot bilan ishlash tartibiga, shuningdek davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq boshqa qoidalarga rioya etishi;<br>ushbu Qonunda belgilangan, davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq bo‘lgan cheklovlarga rioya etishi;<br>manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi, beg‘araz va xolis bo‘lishi;<br>davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o‘z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan harakatlardan (harakatsizlikdan), shu jumladan o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda har qanday shakldagi kamsitishdan, noxolislikdan yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo‘lishdan tiyilishi;<br>o‘z xizmat mavqeidan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi, shuningdek o‘z xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymasligi;<br>davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi talablarga rioya etishi, shuningdek o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishi chog‘ida olingan mazkur ma’lumotlarni oshkor qilmasligi, shu jumladan davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugaganidan keyin oshkor etmasligi;<br>qonunda belgilangan muddatlarda va tartibda daromadlari va mol-mulki to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishi;<br>davlat mulkining but saqlanishini ta’minlashi, o‘ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi; |
| 117 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar haqida aytib bering? | Davlat fuqarolik xizmatchisi quyidagilarga haqli emas:<br>o‘zaro yaqin qarindoshlikda yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar bilan (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat organida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo‘ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo‘ladigan davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;<br>pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno;<br>tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga;<br>tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etishga, ularning muassisi (ishtirokchisi) bo‘lishga, tadbirkorlik faoliyati subyektida tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo‘lgan aksiyalariga qonunchilikda belgilangan talablar doirasida egalik qilish hollari mustasno;<br>o‘zi xizmat qilayotgan davlat organi nazorati ostidagi yoki u bilan aloqalar va manfaatlarga ega bo‘lgan tashkilotlardagi ulushlarni, paylarni va aksiyalarni bevosita yoki vakillar orqali olishga;<br>o‘z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg‘alar olishga;<br>chet davlat fuqaroligini olishga;<br>qonunchilikda nazarda tutilmagan imtiyozlar, preferensiyalar yoki afzalliklardan o‘z xizmat mavqei bilan bog‘liq holda foydalanishga;<br>O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega bo‘lishga, ko‘chmas mulkka va boshqa mol-mulkka egalik qilishga, bundan chet davlatda ta’lim olish, stajirovka o‘tash va tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida ochilgan hisobvaraqlar, shuningdek davlat fuqarolik xizmatiga kirishdan oldin olingan va oshkor qilingan mol-mulk mustasno;<br>o‘zining vakolatlarini siyosiy partiyalarning, boshqa jamoat birlashmalarining va ular organlarining manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirishga. |
| 118 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonuniga asosan Davlat fuqarolik xizmatchisining intizomiy javobgarligi haqida aytib bering? | Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi:<br>hayfsan;<br>o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima;<br>malaka darajasini pasaytirish;<br>davlat fuqarolik xizmati lavozimini pasaytirish;<br>egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish. |
| 119 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Fuqarolarning huquq layoqati haqida aytib bering? | Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi.<br>Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. |
| 120 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Fuqaroning muomala layoqati haqida aytib bering? | Fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi.<br>Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o‘tgan fuqaro nikohdan o‘tgan vaqtdan e’tiboran to‘la hajmda muomala layoqatiga ega bo‘ladi.<br>Nikoh tuzish natijasida ega bo‘lingan muomala layoqati o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to‘la saqlanib qoladi.<br>Nikoh haqiqiy emas deb topilganida sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to‘la muomala layoqatini yo‘qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin. |
| 121 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga ko‘ra, Yer fondi toifalari nechta turga bo‘linadi va ular qaysilar? | O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:<br>1) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar — qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo‘ljallangan yerlar. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar ushbu Kodeksning 43-moddasiga muvofiq turlarga bo‘linadi;<br>2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari — shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;<br>3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar — ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;<br>4) tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar — muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar;<br>5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar — moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlar;<br>6) o‘rmon fondi yerlari — o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;<br>7) suv fondi yerlari — suv obyektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;<br>8) zaxira yerlar. |
| 122 | **Viloyat va tuman uchun** | **Siyosiy** | Shartnoma tushunchasi va uning mazmun mohiyati haqida aytib bering? | Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.<br>Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar.<br>Agar qonunda muayyan turdagi shartnomalar uchun ma’lum bir shakl belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, shartnoma bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin.<br>Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi zarur bo‘lganda esa — shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi.<br>Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda tuzishga kelishgan bo‘lsalar, garchi qonunda bu turdagi shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo‘lmasa-da, shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.<br>Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkin. |